

O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

2025- yil yanvar–oktabr


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi o'zgarishi
- III. Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2025- yilning yanvar–oktabr oylaridagi dastlabki ma'lumotlarga ko'ra (*norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalari hisobga olingan holda*), ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **818 485,0** mlrd so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davri bilan solishtirilganda **14,4** %ga oshdi.

Ma'lumot uchun: 2024- yilning yanvar–oktabr oylarida xizmatlar hajmi **657 399,2** mlrd so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda **13,1** %ga o'sdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi
yanvar-oktabr, mlrd so'mda ¹



II. Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi o'zgarishi

2025- yilning yanvar–oktabr oylarida bozor xizmatlarining umumiy hajmida Toshkent shahrining ulushi **38,1** %, ya'ni **312 217,8** mlrd so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davri bilan solishtirilganda ushbu hududda **16,6** %ga oshgan. Toshkent shahridan tashqari, viloyatlar kesimida eng yuqori hajm Samarqand (**60 330,5** mlrd so'm, ya'ni, bozor xizmatlari umumiy hajmining **7,4** %ini egalladi), Farg'ona (**55 512,8** mlrd so'm, **6,8** %) va Toshkent viloyatida (**55 285,8** mlrd so'm, **6,7** %) kuzatildi. Sirdaryo viloyatida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **11 281,7** mlrd so'mni yoki umumiy xizmatlar hajmining **1,4** %ini tashkil etdi.

¹ 2023-2025- yillarning yanvar-oktabr oylari uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.

Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi asosiy ko'rsatkichlari
2025- yil yanvar-oktabr

	Hajmi, mlrd so'mda	Ulushi, %da	O'sish sur'ati, %da
O'zbekiston Respublikasi ²	818 485,0	100,0	114,4
<i>hududlar:</i>			
Qoraqalpog'iston Respublikasi	26 886,2	3,3	111,4
Andijon viloyati	41 976,9	5,1	115,6
Buxoro viloyati	33 302,5	4,1	112,9
Jizzax viloyati	19 182,8	2,3	114,7
Qashqadaryo viloyati	41 670,7	5,1	112,7
Navoiy viloyati	20 152,1	2,5	113,4
Namangan viloyati	41 951,3	5,1	112,7
Samarqand viloyati	60 330,5	7,4	114,1
Surxondaryo viloyati	27 486,8	3,4	114,1
Sirdaryo viloyati	11 281,7	1,4	113,8
Toshkent viloyati	55 285,8	6,7	114,7
Farg'ona viloyati	55 512,8	6,8	113,7
Xorazm viloyati	28 403,8	3,5	113,9
Toshkent shahri	312 217,8	38,1	116,6

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hududlar kesimidagi hajmi](#)

2025- yilning yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Toshkent shahridan tashqari respublikaning boshqa hududlarida, xususan, Andijon (**115,6 %**), Toshkent (**114,7 %**), Jizzax (**114,7 %**), Samarqand (**114,1 %**) va Surxondaryo viloyatlarida (**114,1 %**) kuzatildi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davri bilan solishtirilganda nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish sur'ati Qoraqalpog'iston Respublikasida (**111,4 %**), shuningdek, Namangan (**112,7 %**) va Qashqadaryo viloyatlarida (**112,7 %**) qayd etildi.

2025- yilning yanvar-oktabr oylarida O'zbekiston Respublikasida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **21 649,5** ming so'mni tashkil etdi. 2024- yilning mos davridagi (**17 730,4** ming so'm) ko'rsatkichga nisbatan **3 919,1** ming so'mga, ya'ni **12,2 %**ga o'sish qayd etildi.

Hududlar kesimidagi tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu davrda aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng yuqori ko'rsatkichi Toshkent shahriga to'g'ri kelib, **99 483,1** ming so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davri bilan solishtirganda **19 283,4** ming so'mga (**14,0 %**) oshdi. Shuningdek, nisbatan yuqori hajmni Navoiy (**18 291,8** ming so'm), Toshkent (**17 671,7** ming so'm) va Buxoro (**15 949,5** ming so'm) viloyatlari egalladi. Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining nisbatan past ko'rsatkichi Surxondaryo viloyatida (**9 255,4** ming so'm) qayd etildi.

² Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda.

**Hududlar kesimida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining
hajmi va o'sish sur'ati ko'rsatkichlari**
2025- yil yanvar-oktabr

	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati, %da
O'zbekiston Respublikasi	21 649,5	112,2
<i>hududlar:</i>		
Qoraqalpog'iston Respublikasi	13 190,5	110,0
Andijon viloyati	12 048,1	113,5
Buxoro viloyati	15 949,5	111,2
Jizzax viloyati	12 386,4	112,5
Qashqadaryo viloyati	11 359,0	110,3
Navoiy viloyati	18 291,8	111,4
Namangan viloyati	13 299,3	110,4
Samarqand viloyati	13 937,0	111,9
Surxondaryo viloyati	9 255,4	111,5
Sirdaryo viloyati	12 044,1	111,8
Toshkent viloyati	17 671,7	112,7
Farg'ona viloyati	13 298,1	111,5
Xorazm viloyati	13 884,6	111,8
Toshkent shahri	99 483,1	114,0

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmi](#)

[Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'ati](#)

Deyarli barcha hududlarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmining o'sish sur'ati **10 %**dan oshdi. Eng yuqori o'sish sur'ati Toshkent shahrida (**114,0 %**), Andijon (**113,5 %**), shuningdek Toshkent (**112,7 %**) va Jizzax (**112,5 %**) viloyatlarida qayd etildi. Bu esa mazkur hududlarda ko'rsatilgan xizmatlarning sifati va turfa xilligining jadal oshib borayotgani, shuningdek, ularning investitsion jozibadorligi ortib borayotganidan dalolat beradi.

2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **452 252,5** mlrd so'mni yoki umumiy bozor xizmatlari hajmining **55,3 %**ini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davri bilan solishtirganda **12,5 %**ga o'sish kuzatildi.

Hududlar orasida kichik biznesning xizmatlar hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan (**74,6 %**), Farg'ona (**74,5 %**), Qashqadaryo (**73,8 %**), Surxondaryo (**73,7 %**) viloyatlarida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida (**73,0 %**) kuzatilmoqda. Ushbu hududlarda bozor xizmatlari asosan kichik tadbirkorlik subyektlariga tayanadi. Shu bois u yanada moslashuvchan, biroq qonunchilikdagi o'zgarishlar va moliyalashtirish imkoniyatlariga nisbatan sezgirroq bo'ladi.

Toshkent shahrida kichik tadbirkorlikning ulushi nisbatan past (**39,7 %**) bo'lishiga qaramay, kichik biznes subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi mamlakat bo'yicha eng yuqori bo'lib, **123 901,4** mlrd so'mni tashkil etdi. Bu esa poytaxtning bozor xizmatlari ko'p pog'onali tuzilmasi shakllanganini ko'rsatadi. Bu yerda yirik tashkilotlar va kichik biznes muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa moliya sektori, AKT, yashash va ovqatlanish xizmatlari sohalarida bu aniq ko'rinadi.

Sirdaryo, Navoiy va Jizzax viloyatlari kabi qator hududlarda kichik tadbirkorlikning ulushi biroz pastroq. Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **7 407,5** mlrd so'mni, Navoiy viloyatida **11 267,9** mlrd so'mni, Jizzax viloyatida esa **13 737,2** mlrd so'mni tashkil etdi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasi bo'yicha kichik tadbirkorlik ko'rsatkichlari
2025- yil yanvar-oktabr

	Hajmi, mlrd so'mda	Jami hajmdagi ulushi, %da	O'sish sur'ati, %da
O'zbekiston Respublikasi	452 252,5	55,3	112,5
<i>hududlar:</i>			
Qoraqalpog'iston Respublikasi	19 630,5	73,0	113,4
Andijon viloyati	30 289,3	72,2	111,3
Buxoro viloyati	23 178,3	69,6	115,5
Jizzax viloyati	13 737,2	71,6	112,5
Qashqadaryo viloyati	30 754,3	73,8	111,2
Navoiy viloyati	11 267,9	55,9	112,1
Namangan viloyati	31 280,4	74,6	111,6
Samarqand viloyati	38 564,0	63,9	111,4
Surxondaryo viloyati	20 244,7	73,7	112,1
Sirdaryo viloyati	7 407,5	65,7	112,4
Toshkent viloyati	40 153,6	72,6	113,1
Farg'ona viloyati	41 358,8	74,5	112,9
Xorazm viloyati	20 484,6	72,1	114,0
Toshkent shahri	123 901,4	39,7	112,8

III. Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025- yilning 27- fevraldagi PQ-78-son "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari belgilangan va ularni monitoring qilish ko'zda tutilgan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmi o'sishiga moliyaviy xizmatlar (**24,5 %**ga; umumiy o'sishga **4,1** foiz band hissa qo'shdi), transport xizmatlari (**13,4 %**ga; **2,5** f.b.), savdo xizmatlari (**13,0 %**ga; **2,4** f.b.), yashash va ovqatlanish xizmatlari (**8,8 %**ga; **1,8** f.b.), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**19,6 %**ga; **1,3** f.b.), boshqa xizmatlar (**12,9 %**ga; **0,6** f.b.), sog'liqni

saqlash sohasidagi xizmatlar (**15,4** %ga; **0,3** f.b.), shuningdek, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (**11,4** %ga; **0,3** f.b.) va ta'lim sohasidagi xizmatlar (**6,8** %ga; **0,3** f.b.) o'sishi asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Ijara xizmatlari (**19,4** %ga), me'morchilik sohasidagi xizmatlar (**14,6** %ga), kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (**12,4** %ga) va shaxsiy xizmatlar (**11,6** %ga) o'sib, **0,8** foiz bandga o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

2025- yilning yanvar-oktabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yashash va ovqatlanish xizmatlari **20,4** %, transport xizmatlari **18,4** %, savdo xizmatlari **17,3** %, moliyaviy xizmatlar **17,0** %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **7,5** %, ta'lim sohasidagi xizmatlar esa **3,7** % ulushni egalladi.

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari
yanvar-oktabr


	Hajmi, mlrd so'mda		O'sish sur'ati, %da
	2024- y.	2025- y.	
Xizmatlar – jami	657 399,2	818 485,0	114,4
<i>shundan:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	44 962,8	61 505,0	119,6
moliyaviy xizmatlar	109 824,7	138 972,8	124,5
transport xizmatlari	121 134,7	150 810,8	113,4
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>59 697,8</i>	<i>75 913,6</i>	<i>111,5</i>
yashash va ovqatlanish xizmatlari	137 159,0	167 261,5	108,8
savdo xizmatlari	118 127,6	141 205,5	113,0
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	16 949,1	21 001,9	111,4
ta'lim sohasidagi xizmatlar	25 149,0	30 419,9	106,8
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	13 056,1	16 512,7	115,4
ijara xizmatlari	7 993,2	10 430,1	119,4
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	9 576,7	11 828,8	112,4
shaxsiy xizmatlar	12 659,6	16 256,2	111,6
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	8 276,8	10 384,1	114,6
boshqa xizmatlar	32 529,9	41 895,7	112,9

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi](#)

2024- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi **30 102,5** mlrd so'mga oshib, **167 261,5** mlrd so'mni tashkil etdi. Uning o'sishiga asosan oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash xizmatlari ta'sir ko'rsatib, mazkur xizmatlar ulushi **95,5** % darajasida qayd etildi.


Yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi tarkibi
2025- yil yanvar-oktabr



2025- yilning yanvar-oktabr oylarida transport xizmatlari hajmi **150 810,8** mlrd so'mga yetdi. Transport xizmatlari tarkibida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **50,3 %**.

Transport xizmatlari hajmining o'sishi ichki va tashqi savdo faoliyati, logistika, turizm hamda elektron tijoratning rivojlanishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu yuk va yo'lovchilar tashishga bo'lgan talabning ortishiga olib keladi.

Transport xizmatlari hajmining turlari bo'yicha tarkibi
2025- yil yanvar-oktabr



2024- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan tahlil qilinayotgan davrda savdo xizmatlari hajmi **23 077,9** mlrd so'mga oshib, **141 205,5** mlrd so'mni tashkil etdi.


Savdo xizmatlarining umumiy hajmida chakana savdo ulushi **52,5 %**ni tashkil etdi. Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi esa **31,9 %**ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi, shu jumladan ularni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar, savdo xizmatlarining umumiy hajmida **15,6 %**ni tashkil etdi.

2024- yilning mos davriga nisbatan 2025- yilning yanvar-oktabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **29 148,1** mlrd so'mga oshib, **138 972,8** mlrd so'mga yetdi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davri bilan solishtirganda **24,5 %**ga o'sdi.

2025- yilning yanvar-oktabr oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urtalash va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari, moliyaviy xizmatlar ulushi **88,0 %**ni tashkil etdi. Sug'urtalash bo'yicha xizmatlarning ulushi **7,2 %** darajasida qayd etildi. Yordamchi moliyaviy xizmatlar esa **4,8 %**ni tashkil etdi.

2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **61 505,0** mlrd so'mni tashkil etdi. Mazkur tarmoqdagi eng katta ulushni kompyuter dasturlashtirish xizmatlari (**40,6 %**) egalladi. Bu sohada dasturlashtirishning yuqori ulushi yangi AT-klaster paydo bo'layotganini ko'rsatadi. U qo'shimcha ish o'rinlari yaratadi va eksport imkoniyatlarini oshiradi, ayniqsa autsorsing va dasturiy ta'minot ishlab chiqishda hissa qo'shadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining turlari bo'yicha hajmi
2025- yil yanvar-oktabr, mlrd so'mda



2025- yilning yanvar-oktabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **30 419,9** mlrd so'mni tashkil etdi. Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlarning ulushi ustunlik qilib, **46,6 %**ga yetdi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmi (**21 001,9** mlrd so'm)da shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlarning ulushi **95,8 %** darajasida qayd etildi.

2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi **16 512,7** mlrd so'mni tashkil etdi. Mazkur sohadagi xizmatlar umumiy hajmining **53,0 %**ini sog'liqni saqlash sohasidagi boshqa xizmatlar tashkil etdi. Shifoxona muassasalari xizmatlari **31,2 %**, tibbiy amaliyot va stomatologiya sohasidagi xizmatlar esa – **15,8 %**.

Ijara xizmatlari umumiy hajmidagi (**10 430,1** mlrd so'm) eng katta ulush yengil avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlariga to'g'ri kelib, **49,2 %**ni tashkil etdi.

IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar

Ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalari hisobga olingan holda shakllantirilgan.

Oylik xizmatlar hajmi quyidagi manbalar asosida shakllantiriladi:

a) tijorat tashkilotlari (kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari bundan mustasno), tijorat tashkiloti bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari hamda notijorat tashkilotlar (ro'yxat bo'yicha) tomonidan taqdim etilgan statistika hisobotlari;

b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari va kichik korxonalar hamda mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobot shakllari asosida baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv natijalari asosida baholash.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu – xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan yoki xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi bo'lmagan barcha xizmat ko'rsatuvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan iste'molchilarga (jumladan, norezidentlarga) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi**da ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlar bo'yicha **hisoblangan to'lovlar (QQS va aksizsiz)** hisobga olinadi.

Xizmatlar bozor xizmatlari sifatida hisobga olinishi uchun, iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lishi, real oldi-sotdi obyekti bo'lishi, narxi ishlab chiquvchi sarf-xarajatlarini to'liq yoki sezilarli darajada qoplasa, bunday xizmatlar **bozor xizmatlari** sifatida hisobga olinadi. Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), shartnoma narxlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan to'lov kunida belgilangan kurs bo'yicha qayta hisoblanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi MST (Milliy statistik tasniflagich) bo'yicha G-S seksiyalarga kiradigan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi asosida shakllantiriladi.

V. Foydali havolalar

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichi (MST)

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlari batafsil (kengaytirilgan) ro'yxati

Tayyorlash uchun mas'ul:
Xizmatlar sohasi statistikasi
boshqarmasi

Manzil: 100170, Toshkent,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63.
Elektron pochta: info@stat.uz
Tel.: 71-203-80-00 (1280, 1283)

